

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2025-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra viloyatda 4183 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulushi 745 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,8 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, 710 tasi (17,0 %) kiyim ishlab chiqarishga, 619 tasi (14,8 %) boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 413 tasi (9,9 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-oktabr holatiga ko'ra



II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 27 717,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,0 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Namangan viloyati	27 717,4	109,0
Namangan shahar	8 201,4	108,0
tumanlar:		
Mingbuloq tumani	733,6	106,8
Kosonsoy tumani	1 323,9	109,2
Namangan tumani	1 468,8	108,2
Norin tumani	264,1	108,3
Pop tumani	754,1	110,7
To'raqo'rg'on tumani	4 853,3	108,4
Uychi tumani	1 461,7	107,7
Uchqo'rg'on tumani	754,8	107,1
Chortoq tumani	843,7	122,8
Chust tumani	2 430,6	113,7
Yangiqo'rg'on tumani	405,0	112,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2025- yil yanvar-sentabr oylarida 8 786,9 ming so'm (2024- yil yanvar-sentabr oylarida 7 020,8 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,8 % ni ko'rsatmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-sentabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 22 706,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (81,9 %)ni tashkil etgan holda elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashtirishda 4 532,4 mlrd so'm (16,4 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 359,7 mlrd so'm (1,3 %) hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 118,5 mlrd so'm (0,4 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-sentabr oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 8 073,0 tonna paxta chigiti (2024-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 53,2 % ga kamaygan), 440,3 tonna paxta tiviti(lint) (49,1 % ga kamaygan), 34 886,0 tonna ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (18,3 % ga ko'paygan), 25 676,0 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (5,4 % ga ko'paygan) hamda 5 653,9 tonna tozalanmagan paxta yog'i (42,8 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr*	2024-yil yanvar-sentabr*	2025-yil yanvar-sentabr
Paxta chigiti, tonna	25 853,0	17 240,4	8 073,0
Paxta tiviti (lint), tonna	905,4	864,3	440,3
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	35 400	29 477	34 886,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	34 287,1	24 353,7	25 676,0
Tozalanmagan paxta yog'i, tonna	4 984,0	9 892,5	5 653,9
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	6 471,0	7 411,0	2 011,7
Paxta iplari, tonna	34 609,5	38 069,6	37 406,3
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	1 173,9	5 968,7	4 872,8

**2023-2024-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori ulushga ega faoliyat turi to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarish, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi – 39,6 % (2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,1 % (2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,3 %)ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi esa – 4,6 % (2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 1,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,7 % (7,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,9 % (15,6 %), quyi texnologiyali 73,9 % (76,1 %)ni tashkil etgan.

Namangan viloyatida yirik korxonalar tomonidan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 97,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 73,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr*	2024-yil yanvar-sentabr*	2025-yil yanvar-sentabr
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	5 084,9	4 828,6	4 724,4
Issiqlik energiyasi-ming. Gkal.	44,0	70,5	51,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlarida 14,5 % ga ko'payish, oqava suvlarning shlami 49,5 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 12,9 % ga ko'payganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- sentabr*	2024-yil yanvar- sentabr*	2025-yil yanvar- sentabr
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlari- mlrd. so'm	85,0	114,3	130,8
Oqava suvlarning shlami - mlrd.so'm	7,9	7,4	11,0
Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari- mlrd so'm	27,0	48,5	54,8

*2023-2024-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 14 342,8 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,7 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 52,4 % ni tashkil etgan.



V. Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 86 ta loyiha bo'yicha 2092,0 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 63,8 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Amaldagi loyihalar soni, birlikda	69	72	77	122	86
Korxonalar soni, birlikda	47	58	58	85	64
Ishlab chiqarish hajmi	395,0	853,8	1467,5	2193,0	2092,0
Yaratilgan yangi ish o'рни	654	1142	620	1804	792

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida 792 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda, yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 56,1 % ga kamayganligi kuzatildi.

VI. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Namangan viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
N. Abduraxmonova
69 227-84-80 (5010)

Manzil:
160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.
